

**"O'zbekiston Respublikasidagi Visa
Premium kartalari egalari uchun aeroportda yukni o'rash" Aksiyasi qoidalari**

Ta'riflar va ularning talqini

Aeroport – Tashkent International Airport (uchib ketish zonasiga, ikkinchi qavat. O'rash shoxobchasi chap tomonidan kirishning yonida, burchakda joylashgan);

Aksiya – "O'zbekiston Respublikasidagi Visa Premium kartalari egalari uchun aeroportda yukni o'rash" promoaksiyasi.

Bank – tegishli bank litsenziyasiga asosida O'zbekiston Respublikasining tegishli hududida bank xizmatlarini taqdim etishdan iborat mutloq huquqqa ega bo'lgan yuridik shaxs.

Verifikatsiya qurilmasi – Aeroportdagagi Aksiya Qatnashchisiga ushbu Qoidalari shartlariga ko'ra Xizmatlar taqdim etish uchun Kartani o'qish imkoniyatini beruvchi maxsus texnik vosita.

Buyurtmachi – «Viza Interneshnl Servis Assosieyshn», u quyidagi manzilda joylashgan: AQSh, SA 94404 – 2775, Foster-Siti sh., Metro Senter bulvari, 900.

Karta – Karta Egasiga O'zbekiston Respublikasi hududidagi Bank tomonidan chiqarilgan va berilgan Visa Platinum va/yoki Visa Signature va/yoki Visa Infinite to'lov kartasi.

Tashkilotchi – "INFOKUS.EUROPE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI, yuridik shaxsning identifikatsion kodi: 090 94 296, joylashgan manzili: Pitterov ko'ch., 2855/7, Jijkov, 130 00, Praga 3, Chexiya Respublikasi.

Hamkor – "Hi-Tech" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI, yuridik shaxsning identifikatsion kodi: 307659867, joylashgan joyi: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi 73-uy.

Xizmat – yukni ushbu Qoidalarda o'rnatilgan limitlar doirasida kamida 3 qatlam qilib o'rash xizmati.

Qoidalari – ushbu Aksiya qoidalari.

Aksiyaning amal qilish muddati – soat 00:00:01 21.11.2022 y. dan soat 23:59:59 30.09.2023 y. gacha.

Aksiya Qatnashchilarini – ushbu Qoidalari bandlariga muvofiq Aksiyada qatnashish huquqiga ega bo'lgan Karta egalari bo'lgan jismoniy shaxslar. Xizmatlar barcha qatnashchilar uchun bir xil. Ushbu holatda farq faqat egalarning qanday Kartaga egaliklariga bo'yichadir.

1. Aksiya Qatnashchilarining Aksiyada qatnashishlari tartibi

1.1. Aksiyada qatnashish maqsadida Aksiyada qatnashish istagiga ega bo'lgan va Aksiya qatnashchisi bo'lmoqchi bo'lgan shaxs Aksiyaning amal qilish Muddati davomida quyidagi harakatlarni bajarishi kerak:

1.1.1. O'zbekiston banklarida chiqarilgan, amal qilish muddati o'tmagan Visa (Visa Platinum, Visa Signature, Visa Infinite) premial Kartalarining egasi haqiqiy egasi bo'lish;

- 1.1.2.** Aksiya to‘g‘risidagi ma’lumotlar va ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqish;
1.1.3. kartani Verifikatsiya qurilmasidan o‘tkazish.

1.2. Ushbu Qoidalarning 1.1.1. - 1.1.4-bandlarida ko‘rsatilgan harakatlar muvaffaqiyatli ado qilingan hollarda shaxs Aksiya Qatnashchisiga aylanadi va Xizmatni oladi.

1.3. Ushbu Qoidalar Aksiya Qatnashchisi bilan Tashkilotchi/Buyurtmachi/Hamkor o‘rtasidagi rasmiy o‘zaro munosabatlardagi asosiy hujjat bo‘lib hisoblanadi. Aksiya Qatnashchisi tomonidan Ushbu Qoidalar banlarini aksept qilish u tomonidan ushbu Qoidalarning 1.1.1. - 1.1.4-bandlarida ko‘rsatilgan harakatlarni ketma-ket ado qilinishi yo‘li bilan amalga oshiriladi.

1.4. Aksiya Qatnashchisi tomonidan aksept qilishni bajarilishi ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladi va u ushbu Qoidalar shartlarida yozma shartnomani tuzishdan iboratdir.

1.5. Qoidalarni qisman aksept qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

1.6. Karta aviachiptaning butun amal qilish muddati davomida amalda bo‘lishi kerak.

2. Xizmatlar ko‘rsatishning o‘ziga xosliklari

2.1. Xizmat faqat Aksiya Qatnashchisiga Aeroportda ko‘rsatiladi.

2.2. Xizmat Aksiya Qatnashchilariga quyidagi limitlarni hisobga olgan holda taqdim etiladi:

2.2.1. Visa Platinum Kartalari egalari bo‘lgan Aksiya Qatnashchilariga – yiliga 2 (ikki) ta Xizmat.

2.2.2. Visa Signature Kartalari egalari bo‘lgan Aksiya Qatnashchilariga – yiliga 4 (to‘rt) ta Xizmat.

2.2.3. Visa Infinite Kartalari egalari bo‘lgan Aksiya Qatnashchilariga – yiliga 6 (olti) ta Xizmat.

2.3. Xizmatdan faqat Aksiya Qatnashchisi tomonidan faqat o‘zining maqsadlarida foydalanishi mumkin va u uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas.

2.4. Aksiyaning amal qilish Muddati davomida foydalanilmagan Xizmat boshqa muddatga ko‘chirilmaydi, jamlanmaydi, qo‘shilmaydi va uning uchun pullik yoki boshqa ko‘rinishdagi tovon to‘lanmaydi.

3. Tomonlarning javobgarliklari

3.1. Noto‘g‘ri taqdim etilgan ma’lumotlar va Kartalardan foydalanish huquqi uchun Aksiya Qatnashchisi amaldagi qonunchilikda ko‘zda tutilgan javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

3.2. Soliqlar, yig‘imlar va majburiy to‘lovlarni to‘lashni amaldagi qonunchilik tomonidan tegishli majburiyat yuklangan shaxs amalga oshiradi.

3.3. Buyurtmachi/Hamkor/Tashkilotchi Aksiya qatnashchisining ularga bog‘liq bo‘lмаган sabablar, jumladan (biror faqat bular bilangina cheklanib qolmasdan), Verifikatsiya qurilmasining buzilishi, reysning bekor qilinishi, ko‘chirilishi yoki ushlanib qolishi, Aeroport

ishidagi o‘zgarishlar, Aksiya Qatnashchisi tomonidan amaldagi qonunchilik qoidalarining buzilishi kabilar bo‘yicha qatnasha olmasligi uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

4. Boshqa qoidalar

4.1. Tashkilotchi ushbu Aksiya Qoidalari doirasidagi majburiyatlarni bajarish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqiga ega.

4.2. Ushbu Qoidalarning bir qiymatli bo‘lmagan tarzda talqin qilinishiga yo‘l qo‘yuvchi vaziyatlar yuzaga kelgan hollarda ushbu Qoidalari bilan tartibga solinmagan har qanday bahsli masalalar va/yoki savollar bo‘yicha Aksiya Tashkilotchisi/Buyurtmachisi qaror qabul qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Aksiya Tashkilotchisi/Buyurtmachisining bunday qarori yakuniy hisoblanadi va uning ustidan shikoyat qilishi mumkin emas.

4.3. Aksiyani amal qilish muddati Buyurtmachi bilan Tashkilotchining o‘zaro kelishuvi bo‘yicha o‘zgartirilishi yoki Aksiya muddatidan oldin yakunlanishi mumkin. Aksiyaning amal qilish Muddatining o‘zgartirilishi yoki uni muddatidan avval yakunlanishi faqat ular e’lon qilingan hollarda amalgा oshirilishi mumkin.

4.4. Ushbu Qoidalari va ularga bo‘lgan o‘zgarishlar tanishib chiqish uchun Buyurtmachining rasmiy saytiga joylashtiriladi.

4.5. Tashkilotchi Aksiya Muddati davomida amaldagi Qoidalarga o‘zgarishlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.